XALQARO TURIZM BOZORIDA MICE TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI	728
Fayyoza Xalimova Nafasovna	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA YO'NALTIRILGAN BIZNES JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISH AMALIYOTI.....	733
Azimov Asrorjon Muzaffarjonovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANDLIKNI LEGALLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	737
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	



TIJORAT BANKLARINING BIZNES EKOTIZIMI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	742
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI YALPI HUDUDIIY MAHSULOT XAJMIGA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNING TA'SIRI	749
Sultanov Anvar Abdullaevich	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODIY HOLATI.....	754
Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li	
DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODIY STRATEGIYALAR	760
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT	764
Mamatkulova Shoir Djalolovna	
РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	769
Ахмедова Азиза Тохировна, Зайналов Ж.Р.	
ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....	774
Айматова Фарида Хуразовна	
XORIJIY MOLIVAVIY RESURLAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNII	778
Xomidova Kamola G'olib qizi	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	783
Xattabov Murodulla Batirovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	788
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOIIY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjapova Latofat Sardorovna	
MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVRQA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHA TLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLUKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimjanovna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinovna	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexriddin Ibragimovich	



TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Shaymanov Mexriddin Ibragimovich

Hamkorbank ATB Yunusobod Universal bank xizmatlari ofisi

Chakana biznes bo'limi boshlig'i

E-mail: mehridin0555@gmail.com

Annotatsiya. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari passivlarining barqarorligini ta'minlash ularning moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi. O'z navbatida, passivlar barqarorligini ta'minlash tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq emission operatsiyalarini yanada rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Maqolada mamlakatimiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiradigan emission operatsiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilingan va tegishli takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, emission operatsiya, qimmatli qog'ozlar, daromad, foiz stavkasi, fond bozori, risk.

Abstract. In international banking practice, ensuring the stability of commercial banks' liabilities is a necessary condition for enhancing their competitiveness in financial markets. In turn, maintaining liability stability necessitates the further development of commercial banks' issuance operations involving securities.

The article scientifically substantiates the opportunities for developing issuance operations of commercial banks in the country related to securities and proposes relevant recommendations.

Key words: commercial bank, issuance operation, securities, income, interest rate, stock market, risk.

Аннотация. В международной банковской практике обеспечение устойчивости пассивов коммерческих банков является необходимым условием повышения их конкурентоспособности на финансовых рынках. В свою очередь, обеспечение устойчивости пассивов обуславливает необходимость дальнейшего развития эмиссионных операций коммерческих банков с ценными бумагами.

В статье научно обоснованы возможности развития эмиссионных операций коммерческих банков страны с ценными бумагами, а также разработаны соответствующие предложения.

Ключевые слова: коммерческий банк, эмиссионная операция, ценные бумаги, доход, процентная ставка, фондовый рынок, риск.

KIRISH

2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, banklarning davlat resurslariga qaramligini bosqichma-bosqich kamaytirish, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, xalqaro amaliy tajribaga ega menejerlarni jalb etish, shuningdek, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega investorlarga tanlov asosida sotish mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan [1].

Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida kelgusi besh yil davomida fond bozori aylanmasini 200 million AQSH dollaridan 7 milliard AQSH dollariga yetkazish orqali mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash va milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan [2].

Yuqorida qayd etilgan yo'nalishlar mamlakat tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq emission operatsiyalarini yanada rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijlik iqtisodchi olimlar Yu. Morozkin va Ye. Svistunovanning xulosasiga ko'ra, "fond bozori kon'yunkturasining dinamik o'zgarishi sharoitida optimal qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish har doim ham yetarli bo'lavermaydi. Bunday sharoitda tijorat banki uchun qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishning takomillashgan strategiyasini ishlab chiqish zarur bo'ladi. Boshqaruv fond bozorida holat to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradigan omillarni muntazam monitoring qilish asosida qimmatli qog'ozlar portfeliga tegishli tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Bu esa investitsiyalash strategiyasi va portfel tarkibi bo'yicha zamonaviy hamda aniq qarorlar qabul qilishga sharoit yaratadi" [3].

Xorijlik iqtisodchi olim H. Markovisning portfel nazariyasiga ko'ra, "yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan asosiy xatolardan biri shundaki, investor har doim daromadlilikning maqbul darajasi sharoitida kam riskni yoki riskning mo'tadil darajasi sharoitida yuqori daromadni ta'minlaydigan portfelni tanlay olaman, deb hisoblaydi. Bunday xatoga yo'l qo'ymaslik uchun investor shunday portfelni tanlashi lozimki, bunda kutilayotgan daromad risk oshmasdan turib ortmaydi yoki aksincha, risk kutilayotgan daromad kamaymasdan turib pasaymaydi" [4].

Taniqli xorijlik iqtisodchi olim F. Mishkinning ta'kidlashicha, "banklarning depozitlari va boshqa passivlari bo'yicha berilgan hukumat kafolatlari korporativ qimmatli qog'ozlarga tatbiq etilmaydi va ular uchun kapital muhim ta'minot vazifasini bajaradi. Biroq oddiy aksiyalar bank faoliyatini moliyalashtirishning nisbatan qimmat shakli bo'lganligi sababli, banklar xarajatlarni optimallashtirish maqsadida qarz instrumentlaridan ko'proq foydalanishga intiladilar" [5].

Xorijlik iqtisodchi olim Ye. Meshkovning fikriga ko'ra, "tijorat banklari o'z resurs bazasini shakllantirish uchun muomalaga aksiya, obligatsiya, ipoteka bondlari, depozit sertifikatlari va jamg'arma sertifikatlarini chiqaradilar. Mazkur qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan pul mablag'larining bir qismi bankning regulativ kapitali tarkibida, ikkinchi qismi esa majburiyatlar tarkibida aks etadi. Aksiya va sertifikatlarning bozor bahosi banklarning ushbu bozordagi faoliyatini baholovchi muhim iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi" [6].

Xorijlik iqtisodchi olim J. Sinkining xulosasiga ko'ra, "muomaladagi sertifikatlar tijorat banklari passivlarini boshqarishning muhim instrumenti hisoblanadi. Tijorat banki qimmatli qog'ozlarini sotishdan olingan mablag'lar nisbatan barqaror passiv sifatida namoyon bo'ladi. Hosilaviy instrumentlar — forwardlar, fyucherslar, opsiyonlar va svoplardan foydalanish tijorat banklariga faoliyat ko'lamini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Banklar tomonidan taklif etiladigan qimmatli qog'ozlar korporativ qimmatli qog'ozlar sifatida ularning resurs bazasini shakllantirishda va to'lovga qobiliyatini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Oddiy aksiyalarning qiymati dividendga emas, balki foydaga asoslanadi. Chunki to'lanadigan dividend miqdori haqidagi qaror aksiyadorlarning kompaniyaga kiritgan investitsiyalari qiymatini to'liq aks ettirmasligi mumkin" [7].

Xorijlik iqtisodchi olim J. Stiglitsning tahliliga ko'ra, 2009-yil 23-fevralda AQSH Moliya vazirligi va FZT tomonidan kelishilgan holda qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturida banklar kapitalidagi davlat ulushini imtiyozli aksiyalardan oddiy aksiyalarga konvertatsiya qilish imkoniyati e'lon qilindi. Bu esa davlatning bank tizimidagi ishtirokini sezilarli darajada oshirish ehtimolini yuzaga keltirdi. Shuningdek, 2009-yilda federal regulyatorlar aktivlari miqdori 100 mlrd dollardan ortiq bo'lgan hamda TARP dasturi doirasida davlatdan yordam olgan 19 ta tijorat bankining moliyaviy holatini o'rgandilar. Ularning xulosasiga ko'ra, mazkur banklarning 2009-2010-yillarda ko'rishi mumkin bo'lgan zarar miqdori 600 mlrd dollarga yetishi ehtimoli mavjud edi. Shu bois tekshirilgan 10 ta bankka ustav kapitalini 75 mlrd dollarga oshirish tavsiya etildi [8].

Mahalliy iqtisodchi olim J. Majidovning fikriga ko'ra, korporativ qimmatli qog'ozlarga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish maqsadida qimmatli qog'ozlar portfelining diversifikatsiya darajasini ta'minlash, fundamental va texnik tahlil usullarini takomillashtirish hamda transaksion depozitlarning pasaymaydigan qoldig'ini korporativ qimmatli qog'ozlarga yo'naltirish maqsadga muvofiq [9].

Mahalliy iqtisodchi olim Z. Xolmaxmadovning xulosasiga ko'ra, Respublika Markaziy bankining ochiq bozor operatsiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi tijorat banklari faoliyatidagi likvidlilik masalalarining murakkablashuviga ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ochiq bozor operatsiyalarining obyektii sifatida asosan Hukumatning qimmatli qog'ozlarini tan oladi. Hukumat qimmatli qog'ozlarining emissiyasi esa davlat budjeti profitsit bilan bajarilayotgan sharoitda cheklangan hajmda amalga oshirilmoqda. Natijada Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalarini keng ko'lamda amalga oshirish imkoniyatlari qisqarib bormoqda [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida turli usul va yondashuvlardan, xususan, qiyosiy tahlil, tarkibiy va trend tahlili, shuningdek, tijorat banklarining emission operatsiyalarini rivojlantirishning dolzarb muammolarini o'rganishda konseptual yondashuvdan foydalanildi.

Tadqiqot tahlilida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi vakolatli agentlik hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan emission operatsiyalardan jalb etilgan pul mablag'lari ularning resurs bazasini shakllantirishning muhim va barqaror manbalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi davrda jahon bank amaliyotida tijorat banklari tomonidan muomalaga quyidagi qimmatli qog'ozlar chiqarilmoqda:

- aksiyalar;
- obligatsiyalar;
- depozit sertifikatlari;
- jamg'arma sertifikatlari.

1-jadval. Fransiyaning BNP Paribas banki tomonidan muomalaga chiqarilgan o'z qimmatli qog'ozlarining miqdori va darajasi¹

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Bankning qimmatli qog'ozlarini sotishdan olingan pul mablag'lari, mlrd. yevro	453,4	594,6	648,6	683,8	723,4
Bankning qimmatli qog'ozlarini sotishdan olingan pul mablag'larining passivlarning umumiy hajmidagi salmog'i, %	18,2	22,6	24,3	26,4	26,7

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, BNP Paribas banki tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hajmi 2020-2024-yillarda izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Shu bilan birga, mazkur qimmatli qog'ozlarni sotishdan jalb qilingan pul mablag'larining bank passivlarining umumiy hajmidagi ulushi ham 2020-2024-yillarda oshib borgan.

Mazkur holat BNP Paribas bankining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq emission operatsiyalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan ijobiy natija sifatida baholanishi mumkin.

2-jadval. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari majburiyatlarining tarkibi, foizda²

Majburiyatlar tarkibi	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Depozitlar	37,3	41,8	45,4	43,5	47,2
Boshqa banklarning mablag'lari	5,6	5,0	8,9	8,3	6,6
Banklararo kreditlar	49,3	46,5	39,1	40,4	35,9
Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	3,1	2,8	2,3	2,4	4,4
Subordinar qarzlari	1,3	1,1	1,4	1,7	1,7
To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	1,2	1,1	1,1	1,5	1,5
Boshqa majburiyatlar	2,2	1,9	1,8	2,2	2,7
Majburiyatlar -jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

2-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, respublikamiz tijorat banklari aktivlari tarkibida 2020-2024-yillarda asosiy salmoqni depozitlar hamda xorijiy banklardan jalb qilingan kreditlar egallagan. Shu bilan birga, banklarning qimmatli qog'ozlarini sotish orqali jalb qilingan mablag'lar ulushi nisbatan kichik hajmni tashkil etgan.

Mazkur holat mamlakat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq emission operatsiyalarining rivojlanish darajasi hozircha yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan emission operatsiyalari yuzasidan quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1 Jadval muallif tomonidan BNP Paribas bankining yillik hisobotlari (www.bnpparibas.com) ma'lumotlari asosida hisoblangan.
2 Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.



- fond bozori kon'yunkturasining dinamik o'zgarishi sharoitida oqilona qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish har doim ham yetarli natija bermaydi. Bunday sharoitda tijorat banklari uchun portfelni boshqarishning takomillashgan strategiyasini ishlab chiqish zarur;

- oddiy aksiyalar bank faoliyatini moliyalashtirishning nisbatan qimmat shakli hisoblanganligi sababli, banklar xarajatlarni optimallashtirish maqsadida qarz instrumentlaridan kengroq foydalanishga intiladilar;

- muomaladagi sertifikatlar tijorat banklari passivlarini boshqarishning muhim instrumenti hisoblanadi. Ularning qimmatli qog'ozlarini sotishdan olingan mablag'lar nisbatan barqaror passiv manba sifatida namoyon bo'ladi;

- korporativ qimmatli qog'ozlarga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish uchun qimmatli qog'ozlar portfelining diversifikatsiya darajasini ta'minlash, fundamental va texnik tahlil usullarini takomillashtirish hamda transaksion depozitlarning pasaymaydigan qoldig'ini korporativ qimmatli qog'ozlarga yo'naltirish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi;

- BNP Paribas banki tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hajmi 2020-2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Shu bilan birga, mazkur qimmatli qog'ozlarni sotishdan jalb qilingan mablag'larning passivlar umumiy hajmidagi ulushi ham oshib borgan;

- respublikamiz tijorat banklari aktivlari tarkibida 2020-2024-yillarda asosiy salmoqni depozitlar va xorijiy banklardan jalb qilingan kreditlar egallagan. Banklarning qimmatli qog'ozlarini sotishdan olingan mablag'lar ulushining nisbatan kichikligi esa emission operatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq emission operatsiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash orqali investitsion jozibadorlikni oshirish:

- inflyatsiyaning 5 foizlik maqsadli ko'rsatkichiga erishishni ta'minlash;

- milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan barqaror va prognoz qilinadigan almashuv kursini saqlash orqali bank qimmatli qog'ozlariga yo'naltirilgan investitsiyalarning real qiymatini himoya qilish;

- oddiy aksiyalar bo'yicha dividend to'lashda inflyatsiyaning yillik o'sish sur'atini inobatga olish.

2. Emission operatsiyalar samaradorligini oshirish:

- ikki yildan ortiq muddatga chiqariladigan subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari hamda nokumulyativ imtiyozli aksiyalar emissiya hajmini oshirish orqali banklarning resurs bazasi barqarorligini mustahkamlash;

- sof foizli marjaning me'yoriy darajasini ta'minlash orqali bank obligatsiyalari va depozit sertifikatlari bo'yicha foiz stavkalarini maqbul darajada shakllantirish imkoniyatini saqlab qolish;

- bank qimmatli qog'ozlari bo'yicha foiz xarajatlarining jami foiz xarajatlar hajmidagi ulushi barqarorligini ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PF-5992-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. Морозкин Ю.Н., Свистунова Е.С. Управление портфелем ценных бумаг в коммерческом банке // Вестник Челябинского государственного университета. - Челябинск, 2011. - № 6. - С. 138.
4. Markowitz H. Portfolio Selection // The Journal of Finance. - 1952. - № 7. - P. 77-91.
5. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг / пер. с англ. - М.: Алпина Публицер, 2017. - С. 396.
6. Мешкова Е.И. Оценка деятельности и финансовой устойчивости коммерческого банка // Банковский менеджмент: учебник / под ред. проф. О.И. Лаврушина. - М.: КНОРУС, 2016. - С. 141-148.
7. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг / пер. с англ. - М.: Алпина Публицер, 2017. - 1018 с.
8. Мировой финансовый кризис 2008 года // <https://ria.ru/20230915/krisis-1896157500.html> Majidov J.K. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlar portfellarining sifatini oshirish yo'llari: i.f.b. f.d. diss. avtoref. - Toshkent, 2020. - 54 b.
9. Xolmaxmadox Z.A. Milliy bank tizimi: barqarorlikni ta'minlash va istiqbol // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. - Toshkent, 2018. - № 4-5, avgust-oktyabr.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>